IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA KORXONALARGA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Sotiboldiyev Xayitboy Abdullajon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID:0009-0005-0809-1810
e-mail: xayitboysotiboldiyev3001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyot transformatsiyalashuvi jarayonida korxonalarga investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari, uning bugungi kundagi investitsiya siyosatidagi ahamiyati, investitsiyalar jalb qilishning nazariy asoslari tadqiq qilingan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda investitsiyalarning ahamiyati va o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Iqtisodiyot transformatsiyalashuvi investitsiyalar jalb qilish amaliyotini rivojlantirish zarurligi asoslangan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari asosida investorlarning o‘z moliyaviy resurslarini korxonalarga yo‘naltirishdagi strategiyasini ishlab chiqish zarurligi ochib berildi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot transformatsiyalashuvi, raqamli transformatsiya, investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot, talab va taklif, texnik va texnologik o‘zgarishlar, resurslar samaradorligi.

Annotation: In the process of economic transformation, ways to improve the attraction of investments to enterprises, its importance in today's investment policy, theoretical foundations of investment attraction are studied in this article. The importance and specific features of investments in the development of business activities are revealed. The transformation of the economy is based on the need to develop the practice of attracting investments. In addition, based on the results of the research, it was revealed the need to develop a strategy for investors to direct their financial resources to enterprises.

Key words: economic transformation, digital tranformation, investments, digital economy, demand and supply, technical and technological changes, resource efficiency.

Аннотация: В процессе экономической трансформации в статье изучаются пути повышения привлекательности инвестиций для предприятий, ее значение в современной инвестиционной политике, теоретические основы привлечения инвестиций. Раскрыты значение и специфика инвестиций в развитии предпринимательской деятельности. Трансформация экономики основана на необходимости развития практики привлечения инвестиций. Кроме того, по результатам исследования выявлена необходимость

ISSN 3030-3907

разработки стратегии направления инвесторами своих финансовых ресурсов на предприятия.

Ключевые слова: экономическая трансформация, цифровая трансформация, инвестиции, цифровая экономика, спрос и предложение, технико-технологические изменения, ресурсоэффективность.

Kirish

Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuvi jarayonlarining o‘ziga xos belgisi bo‘lib, uning beqarorligi hisoblanadi. Bu iqtisodiyotda eski va yangi holatlarning unsurlari aralash holda amal qiladi. Iqtisodiy tizimlar transformatsiyasi mavjud tizimdagi beqarorlikni yanada kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, pirovardida mazkur tizim o‘zining o‘rnini yangi iqtisodiy tizimga sekin-asta bo‘shatib beradi. Transformatsiya jarayonlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy tizimlar transformatsiyasining tarixan turli ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular jarayonlarning miqyosi va tavsifiga ko‘ra farqlanadi. Umumbashariy (global) transformatsiya jarayonlari butun insoniyat tarixi uchun xosdir. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti quyidagilar bilan tavsiflanadi: birinchidan, u islohotlarga asoslangan evolutsion turdagi o‘tish iqtisodiyoti bo‘lib, uning amal qilishida ilmiy jihatdan asoslangan va maqsadga yo‘naltirilgan dasturlar muhim rol o‘ynaydi; ikkinchidan, mazkur maqsadga yo‘naltirilganlik muntazam ravishda rivojlanib hamda hayotga tatbiq etilib boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Hozirgi zamon transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1) bozor iqtisodiyotiga an’anaviy iqtisodiyotdan emas, balki alohida, o‘ziga xos - markazlashgan rejali iqtisodiyotdan o‘tilishi. Bu o‘rinda bugungi kungacha ma’lum bo‘lmagan muammolami hal qilish taqozo etiladi. Bularning barchasi transformatsiya jarayonlarining mushkulliklarini keltirib chiqaradi;

2) islohotlarga asoslangan-evolutsion rivojlanish yo‘llarini tartibga solish iqtisodiyotni buyruqbozlik-byurokratik usullarining salbiy ta’siridan tozalash bilan bog‘liq bo‘lib, bu samarali rivojlanishning umumiy o‘zaniga qaytish imkonini beradi;

3) transformatsiyalashuv jarayoni XX asr oxirida, ya’ni o‘ziga xos tarixiy sharoit umumbashariy o‘tish jarayonlarining kengayib borishi sharoitida ro‘y bermoqda. Rivojlangan industrial mamlakatlar postindustrial jamiyatga o‘tish ostonasida turibdi. An’anaviy iqtisodiyot unsurlari sezilarli rivojlangan mamlakatlar hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyotining zamonaviy shakllariga tezlik bilan o‘tmoqdalar. Shu bilan bir vaqtda, ishlab chiqarish va ayirboshlashni umumlashtirish, baynalmilallashtirishning intensiv ravishda ro‘v berayotgan

ISSN 3030-3907

jarayoni ularga postindustrial bosqichning bir qator yutuqlariga erishish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 14-mart kuni iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, davlat korxonalarini transformatsiya qilish masalalari yuzasidan mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, raqobat muhitini yaxshilash maqsadida davlat korxonalari transformatsiya qilinmoqda. Yig‘ilishda bu boradagi ishlarni jadallashtirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish masalalari muhokama qilindi. Jumladan, 25 ta davlat korxonasida operatsion samaradorlikni oshirishda sustkashlikka yo‘l qo‘yilgani ko‘rsatib o‘tildi. Hozirgi zamon talabiga javob bermaydigan, zarar bilan ishlayotgan korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash amaliyotidan butunlay voz kechish kerakligi aytildi.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son ”2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonida Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rildi. Jumladan, Raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish. Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali barcha aholi maskanlarini va ijtimoiy obyektlarni hamda magistral avtomobil yo‘llarini keng polosali ulanish tarmoqlari bilan qamrab olish. Iqtisodiyotning real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko‘rish. Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha, “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizimni yo‘lga qo‘yish. Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish.

Mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish hamda yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), shu jumladan fond birjasi orqali xususiylashtirish. Davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026-yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushini 60 foizgacha yetkazish masalalariga katta e’tibor qaratildi.[2]

ISSN 3030-3907

Jahondagi global tranaformatsiyalashuv jarayonlari O‘zbekistonning o‘tish davri iqtisodiyotiga, undagi jarayonlarning mazmuni va ulaming pirovard yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emas. Shu ma’noda O‘zbekistondagi transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti ham noyob lokal (mahalliy) va umuminsoniy global tendensiyalaming birikmasini namoyish etadi.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining mazmunini nafaqat iqtisodiy siyosat va xo‘jalik yuritish usullarini isloh qilish, balki ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini o‘zgartirishni ham tashkil etadi. Bu davrda iqtisodiyotning mulkchilik munosabatlari va resurslarni taqsimlash usullari, takror ishlab chiqarish turi va motivatsiyalash modellari, iqtisodiy rivojlanish maqsad va vositalari, institutlar va huquq kabi deyarli barcha tarkibiy qismlari o‘zgaradi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining asosiy belgilari, boshqa barqaror bosqichdagi u yoki bu iqtisodiyotning holatidan farqli o‘laroq, mazkur davrdagi o‘zgarishlarning tavsifi bilan shartlanadi. SenSimonning ta’kidlashicha, bunday o‘zgarishlar bar bir barqaror tizim yoki tarkibiy davr (bosqich) uchun amal qiladigan o‘zgarishlar hisoblansa, transformatsiyalashuv davri uchun esa bu ustun ravishda rivojlanish o‘zgarishlari demakdir.[3] Mazkur belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchi belgisi - o‘ziga xos beqarorlikning mavjudligi. Ma’lumki, har qanday tizimning amal qilish jarayonida doimiy ravishda turli o‘zgarishlar yuz berib turadi. Biroq bu o‘zgarishlar mazkur iqtisodiyotga xos bo‘lgan maqsadli faoliyatni amalga oshirishning erkin vositasi sifatida maydonga chiqadi. Ushbu mexanizmning yaqqol misoli bo‘lib kapitalistik bozor iqtisodiyotining siklli rivojlanish manzarasi xizmat qilishi mumkin. Iqtisodiyot nazariyasi o‘zining dastlabki qadamlaridayoq bu holatni, ya’ni tizimning barqarorligini o‘zgarishlar predmeti tarkibiga kiritadi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti uchun boshqa tartibdagi o‘zgarishlar xos bo‘lib, bu o‘zgarishlar tizimdagi boshqa o‘zgarishlar orqali muvozanatli barqaror holatga qaytish uchun tizimning barqarorligini vaqtincha buzishga o‘xshamaydi. Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti rivojlanishidagi o‘zgarishlar qayta tiklanmaydigan xususiyatga ega. Ular mavjud tizimdagi beqarorlikni kuchaytirish orqali pirovardida uning yangi iqtisodiy tizimga o‘tishiga yo‘naltirilgan.

Ikkinchi belgisi - transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti rivojlanishining muqobillik xususiyatga egaligidir. Muqobillik shuni anglatadiki, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining rivojlanish yakunlari turli variantlarda namoyon boTishi mumkin. Bu holat transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining o‘zgarishlari ichiga eski va yangi holatlarni unsurlarini aralash holatda qamrab

ISSN 3030-3907

oluvchi tabiatidan, shuningdek, bu davrdagi rivojlanish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarning turli-tumanligidan kelib chiqadi.

Uchinchi belgisi - maxsus oraliq iqtisodiy shakllarning paydo bo‘lishi va amal qilishi. Bunda bu davrdagi eski va yangi jihatlarning aralashuvi namoyon boTadi. Mazkur omillar, shuningdek, bu davrning oldinga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi hamda uning ortga qaytmasligini ifodalaydi.

To‘rtinchi belgisi - transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotdagi ziddiyatlarning maxsus tavsifi. Bu ziddiyatlar tizimning amal qilish holatiga emas, balki rivojlanish holatiga xosdir. Ya’ni bu ziddiyatlar yangilik bilan eskilik o‘rtasidagi jamiyatning turli subyektlari, tabaqalari o‘rtasidagi ziddiyat ko‘rinishida namoyon boladi. Transformatsiyalashuv davri yo‘naltirilgan o‘zgarishlar iqtisodiy jihatdan doimo inqilobiy xususiyatga ega. Bu yerda gap iqtisodiy tizimlarning almashuvi to‘g‘risida boradi. Biroq, ijtimoiy-siyosiy nuqtayi nazardan transformatsiyalashuv davri shunday keskin to‘qnashuvlar bilan boradiki, natijada ziddiyatlar inqilobiy va ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Davrning o‘tkinchi ekanligi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi orqali muqarrar bo‘lib, bu holat iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ifodalanadi. Masalan, fiziokrat Mirabo uchun o‘zgarishlar davridagi ziddiyatlardan chiqishning ijobiy yo‘li uning uchun ideal hisoblangan o‘tmishdagi feodal tartiblarga qaytishdan iborat bo‘lgan. S.Sismondi vujudga kelayotgan kapitalizmning illatlarini tanqid qilgan holda mayda tovar ishlab chiqarishga qaytishga chaqirgan.

Beshinchi belgisi - transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining tarixiyligi. Bu tarixiylik ikki holat bilan bog‘liq: birinchidan, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti shart-sharoitlarining tarixiy tavsifi; ikkinchidan, mazkur tarixiylikning alohida mamlakat mintaqasi xususiyatlariga bog‘liqligi. Masalan, transformatsiya jarayonlari sharq va g‘arb sivilizatsiyasi sharoitlarida bir holda kechmay, har bir mamlakat taraqqiyotining muayyan darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Bularning barchasi esa transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti uchun ma’lum bo‘lgan umumiy qonuniyatlarning turli sharoitlarda namoyon bo‘lishida muayyan shakllarga egaligini anglatadi. Hattoki, transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining maxsus tahlili ham har qanday holatlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan aniq modellami keltirib chiqara olmaydi.

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining mohiyatini tushunish uning turli belgilariga ko‘ra turlarini ajratib olishni taqozo etadi. Hozirda mavjud bo‘lgan o‘quv adabiyotlarida transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining jarayonlar miqyosi va tavsifi jihatidan turli tiplarga ajratilishi keng tarqalgan.

Mahalliy transformatsiyalashuv iqtisodiyoti miqyosi bo‘yicha qandaydir bir mintaqa yoki alohida mamlakatdagi yangi holatga o‘tishni tavsiflaydi.

ISSN 3030-3907

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyotining miqyosi bo‘yicha ikkinchi turi global transformatsiyalashuv davridir. U o‘zgarishlarning butun jahon xo‘jaligi miqyosida yoki sivilizatsiyalar doirasida yagona jarayon sifatidagi tavsifini namoyon etadi. Global transformatsiyalashuv jarayonlarning rivojlanishiga mahalliy darajadagi o‘zgarishlar muayyan ta’sir ko‘rsatib, buning natijasida ma’lum global tendensiyalar qaror topadi.[3]

Transformatsiyalashuv davri iqtisodiyoti nazariyasi kishilik jamiyati uchta asosiy holatining amal qilish shart-sharoitlaridan kelib chiqadi:

1) an’anaviy (nobozor) iqtisodiyot;
2) bozor iqtisodiyoti;
3) postindustrial (bozor tipidagi iqtisodiyotdan keyin keluvchi) jamiyat iqtisodiyoti.

Bunday tarzdagi uchta bosqichga ajratish quyidagi belgilar bo‘yicha amalga oshiriladi:
1) ishlab chiqarish-texnikaviy bazaning holati;
2) ishlab chiqarish vositalarini o‘zlashtirish tavsifi;
3) ishlovchining holati. Ushbu belgilar bo‘yicha kishilik jamiyati asosiy bosqichlarining tahlilini qisqacha tarzda quyidagi jadval ko‘rinishida ifodalash mumkin.

Ma’lumki, har qanday taraqqiyot modelining bosh maqsadi iqtisodiy o‘sish va uning asosida xalq kafolatligini ta’minlashdir. Lekin barcha taraqqiyot modellarida ham bu maqsadga erishilyaptimi? Bu savolga bir so‘z bilan «ha» javobini berish qiyin, albatta. O‘zbek modeli misolida esa bu savolga ijobiy javob berish uchun yetarli asoslar mavjud. O‘zbek modeli iqtisodiy islohotlarning ijtimoiy yo‘naltirilgan yo‘lini amalga oshirish, ishlab chiqarishning keskin pasayib ketishini to‘xtatish, makroiqtisodiy barqarorlikka erishish imkonini berdi. Transformatsiya davri bir barqaror ijtimoiy-iqtisodiy tizimdan boshqa biriga o‘tish holatini qamrab oluvchi, bu holatlaming o‘zgarishi va yangi sifat holatiga aylanishi uchun zarur bo‘lgan ma’lum tarixiy muddatni ifodalovchi oraliq davrdir. Transformatsiyalashuv davrining boshlanishi bo‘lganidek, uning yakunlanishi ham muqarrardir. Biroq, bu yakunlanish ham o‘ziga xoslik, alohidalik tavsiflariga ega bo‘lib, uni belgilash uchun maxsus mezonlardan foydalanish mumkin. Bu borada eng umumiy va asosiy mezon - sifat jihatdan yangi ijtimoiy-iqtisodiy tizimning yaratilishi hisoblanadi.[3]

Mazkur jarayonning mazmun mohiyatini tushunish esa ijtimoiy takror ishlab chiqarishning mohiyati va jihatlari, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanishi asoslarini, shuningdek, ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror

ISSN 3030-3907

bozor iqtisodiyotiga o‘tish va uning yakunlanishi xususiyatlarini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Xulosa

Iqtisodiyot transformatsiyalashuvi jarayonida korxonalarga investitsiya kiritishning e’tiborli jihati shundaki, hozirgi kunda iqtisodiyotda talab bildirilayotgan tovar yoki xizmatga bir muddatdan so‘ng talab miqdoring kamayishi yoki butkul yo‘qolishi kuzatilishi mumkin. Ayni shunday sharoyitda faoiliyat yuritayotgan investor o‘z moddiy va nomoddiy boyliklarini tegishli tarmoq hamda sohalarga yo‘naltirishda iqtisodiyot tranfarmatsiyalashuvi qay tarzda kechayotganligini hisobga olishi lozim.[11]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son” 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni
3. U.V.G‘Afurov, F.M.Bekqulbekov, Q.Q.Mambetjanov “Iqtisodiy tizimlar transformatsiyalashuv jarayonlari nazariyasi” T.:«Fan va texnologiya», 2013, 184 bet.
4. Shodmonov Sh.Sh., G ‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Fan va texnologiya». 2005. - 779 b
5. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi.- T.: «Moliya». 2002.
6. Экономическая теория: Учебник. - Изд. испр. и доп. /Под общ. ред.акад. В.И.Видяпина, А.И.Добрынина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. - М.:ИНФРА-М, 2005.
7. Экономическая теория. Учебник./Под. ред. А.Г.Грязновой, Т.В.Чечеловой - М.: Экзамен, 2004.
8. Haydarov O‘A. Investisiya.: Darslik-2022 y./ TDIU- 310 b.
9. Tojiyev J.R., (2024). Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda mikromoliyalashtirishning rolini oshirish yo‘llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -ISSN: 2992-8982, 2024-yil. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
10. Tojiyev J.R., (2024). Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини ривожлантиришда микромолиялаштиришнинг хусусиятлари. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -ISSN: 2992-8982, 2024-yil. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

ISSN 3030-3907

11. Sotiboldiyev X.A., (2024). Iqtisodiyot transformatsiyalashuv jarayonida korxonalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga investitsiyalarni jalb qilish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -ISSN: 2992-8982, 2024-yil. №12 https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

12. Rustamovich, T. J. (2024). Types and methods of innovative marketing in the organization of business activities. American journal of business management, *2*(3), 56-61